

Tabiiy sharoitlarni yaxshilash



ass. Mardiyev Sh.H

O‘zbekiston sharoitida ekin ekiladigan maydonlarining yaratilishi va hozirgi holati



Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xamidov M.X., Shukurlayev X.I., Mamataliyev A.B. Qishloq xo‘jaligi gidrotexnika melioratsiyasi. Toshkent . SHarq. 2008.-408 bet.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 1-12 tom.
3. Xamidov M.X., Muxamedov A.K., Begmatov I.A. Tabiiy sharoitlarni yaxshilash. Toshkent 2007.
4. Shukurlayev X.I., Mamataliev A.B., Shukurlayeva R.T. Yerlar rekultivatsiyasi va muhofazasi. Toshkent 2008, 128 bet.

O‘tilgan mavzular bo‘yicha savollar:

1.O‘zbekistonning qanday iqlim mintaqa (zonalariga) bo‘lingan?

2.Landshaft so‘zining manosi, uning turlari?

3.Antropogen landshaft qanday turlarini bilasiz?

4.Landshaft qanday qismlardan tashkil topgan?

5.Orol bo‘yi mintaqasidagi yuzaga kelgan global muammoning sabablari?

5.Orol bo‘yi mintaqasidagi yuzaga kelgan global muammoning qanday yechimlarini bilasiz?

Ekin maydonlarini yaratishda xo‘jalikda sug‘orish tarmoqlarini namunaviy maydon hududida joylashtirish «Fermer xo‘jalik hududini tashkil etish tuzilmasi» asosida quyidagi talablarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

- qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orishda sug‘oriladigan maydonlarga ishlov berish bilan birga olib borilishi kerak, bu holat suvni tejash bilan birga yuqori hosil olishni ham ta‘minlaydi;
- navbatdagi sug‘orish uchun egat olib sug‘orishdan keyingi maqbul muddatlarda ekin qatorlarini kultivatsiya qilish orqali namlikni uzoq saqlash;
- suvdan eng muqobil foydalanish maqsadida xo‘jaliklararo sug‘orish tarmog‘i shunday tizimga ega bo‘lishi kerakki, fermer dalasiga kelayotgan suvdan qattiq nazorat o‘rnatgan holda suvdan foydalanishni tashkil etish.



Respublikamizning fermer xo‘jaliklarida paxta-bug‘doy, almashlab ekish tuzilmasi –1:1 keng qo‘llanilmoqda.

Agar xo‘jalikning yerlari bitta meliorativ tumanda joylashgan bo‘lsa, bu holda bir-biridan kattaligi bo‘yicha farq qilmaydigan bir nechta almashlab ekish maydonlariga mustaqil XIT dan har bir almashlab ekish maydoniga suv beriladi. Agar xo‘jalikning yerlari yer osti suvlarining sathi va boshqa ko‘rsatkichlariga (tuproq turlari, ularning sho‘rlanishi) ko‘ra bir nechta meliorativ tumanlarga bo‘linsa, xo‘jalikda ham almashlab ekish tuzilmasi va maydoni bo‘yicha bir-biridan farqli bir nechta almashlab ekish maydonlari loyihalanishi mumkin. Relyef sharoitlari murakkab bo‘lib almashlab ekish dalalari maydoni jihatidan bir-biriga teng bo‘lmagan bir qancha sug‘orish uchastkalaridan tashkil topgan bo‘lsa, bitta almashlab ekish dalalari maydoniga farq 10-15 % atrofida bo‘lishiga yo‘l qo‘yilishi mumkin.




Ekin maydonlarini tashkil etishda asosiy o‘rin, uning hududini fan yutuqlaridan foydalangan holda belgilanadi. Hududni tashkil etish rejasida ekinlarning turlarini optimal to‘plamini oldindan ko‘ra bilish kerak, ularning bir-biriga bo‘lgan to‘g‘ri nisbatini topish kerak, bir-biriga bo‘lgan joylashuvi, shakli va o‘lchamlari, ishlatish rejasi, melioratsiya qilinadigan yerlarning kerakli sonini, himoyalash usullari inobatga olinishi kerak. Bu qarorlar bir tomondan ijtimoiy buyurtma, boshqa tomondan maydonning o‘zining tarkibi va bundan oldingi xo‘jalik faoliyatining o‘zidan keyin qoldirgan sharoitlari bilan aniqlanadi. Shuni inobatga olish kerakki, iqtisodiyot va tabiatni qo‘riqlash mnfaatlari har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi, o‘rtacha qaror qabul qilish kerak, bunda tabiatni saqlab qolish qarori qabul qilinadi.



Ekin maydonlarida ekiladigan asosiy ekin turiga qarab paxtachilik, g'allachilik, ozuqa ekin, sabzavotchilik va boshqalarga farqlanadi. Ularning maydon ko'lami paxtachilikda 200-400 ga, g'allachilikda 500-800 ga va undan ko'proq bo'ladi.




Ekin maydonlari dalalarga bo'linadi. Bir ekin maydonlaridagi dalalar soni 5-10 ta gacha va ularning maydon ko'lami 15 ga dan 30 ga gacha bo'lishi mumkin. Dalalar soni va ularning o'lchami xo'jalikda yetishtirilayotgan ekin turlari, xo'jalik talablari va xo'jalikning texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda xo'jalik agronomi tomonidan belgilanadi. Mehnat ko'p talab qilinadigan ekin dalalarining maydon ko'lami kichik, kam talab qilinadiganlariniki esa katta bo'ladi.




Ekin dalalariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- ularning maydoni o‘zaro bir-biriga teng (5-10% farqi bilan), qishloq xo‘jaligi mexanizmlari ishlashi uchun o‘lchami va shakli qulay bo‘lishi;
- relyef, tuproq, gidrogeologik va agromeliorativ shart-sharoitlari bo‘yicha bir xil bo‘lishi;
- ular doimiy sug‘orish tarmoqlari, yo‘llar va tashlama yoki zax qochirish tarmoqlari bilan chegaralangan bo‘lishi talab qilinadi.



QISHLOQ XO‘JALIGINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI



■ Qishloq xo‘jaligi ekinlari ekin maydoni, ming ga

—● Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati, o‘tgan yilga nisbatan %da

Birinchi galda yerlar holati monitoringiga, ob-havoning uzoq va qisqa muddatli oldindan beriladigan bashoratiga asoslangan, fan tomonidan to'g'ri asoslangan melioratsiya tizimlarini to'g'ri boshqarilishini ta'minlash kerak. Bunga melioratsiya qilinadigan yerlarda tabiiy sharoitlarda tizimning bashorat qilingan ob-havoga qarab qabul qilinayotgan qarorlarning tavakkallik darajasini yo'qqa chiqazishga harakat qilish orqali erishiladi.

Insonning va tabiatning o'zaro munosabatlari inson va jamiyatning suveren ehtiyojlarini, ikkinchi tomondan tabiatning xuddi shunday suveren "ehtiyotlarini" saqlash o'z ifodasini tarkibi aql bilan fan yutuqlariga suyangan holda o'zgartirilgan va optimallashtirilgan, ya'ni yuqoridagi ko'rsatilgan tamoyillarga amal qilib, jamiyat va tabiatni ehtiyojini o'ylab ekinzor maydonlarini yaratishda o'z aksini topadi.





Biz barcha maydonlarni ham ekinzorlarga aylantirishimiz kerak emas va bunday qilolmaymiz ham. Tayga maydonlari yoki tropik oʻrmonlar maydonlari ham koʻp yillar davomida kislorod yetkazib beruvchi tabiiy fabrika, hayvon va oʻsimliklarning koʻpayib yashash hududi, suv taqsimlanishining va kelajakdagi avlodlar uchun yogʻoch va boshqa xom ashyo zahiralar koni boʻlib qolishi kerak.



Ko‘p maydonlar, ayniqsa, shartli ravishda o‘zgartirilmagan va kam o‘zgartirilganlari qaralmog‘i kerak: atmosferaga texnogen chiqindilarni chiqazib yuborishni qisqartirish hisobiga iqlimni ifloslantirishni kamaytirishi, yong‘inga qarshi tadbirlar, zararkunandalar va kasallar bilan kurash, o‘rmondagi chirigan daraxtlarni chopib tashlash, xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish. Bu tundra, tayganing kam o‘rganilgan, cho‘l va yarim cho‘l maydonlariga aloqador.



Ekin maydonlarini yaratayotganda inson uning foydalanish narxini va hosildorligini oshiradi. Turli xil foydalanishga mo'ljallangan yerlari bor maydonning umumiy hosildorligini baholash qo'llanmasi hozircha mukammal ishlab chiqarilmagan.



Maydonlarni ekinzorlarga aylantirish bo'yicha tadbirlarning jamlamasi maydonlararo aloqalarni hisobga olgan holda umumiy hosildorlikni oshirilishini isbotlashga tayanish kerak. Ekin maydonlarida qayta tiklanayotgan tabiiy zahiralarni (boyliklarni) unumdorligini yuqori darajada ta'minlash kerak, birinchi galda uning biologik xususiyatlarini nazarda tutish kerak. Qayta tiklanayotgan "toza" quvvat zahiralarni, tabiat muhitini zararlantirmaydiganlarini ishlatishga urg'u berish kerak.

Tabiiy va texnogen ko'rinishga ega bo'lgan qoniqtirmaydigan jarayonlarni oldini olish kerak. Yangi ekin maydonlarini tashkil etishda yerlarni melioratsiya qilishning keng imkoniyatlari bor, lekin uni noto'g'i qo'llash yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **2017-yil 9-oktabrdagi PF-5199-sonli farmoni**

Farmonda fermerlik harakatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasining **2018-2021-yillarda fermer xo‘jaliklarini bosqichma-bosqich ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklariga aylantirish** to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berildi hamda **2022-yilning 1-yanvaridan boshlab ko‘p tarmoqli faoliyatni yo‘lga qo‘ymagan fermer xo‘jaliklari bilan yer ijarasi shartnomalari qonun hujjatlariga muvofiq bekor qilinishi** belgilab qo‘yildi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur Farmon fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va realizatsiya qilishni ko‘paytirishga xizmat qiladi va ushbu yo‘nalishdagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun keng yo‘l ochib beradi.



O'zbekiston YaIMning 32 foizini tashkil qilib, mehnatga layoqatli aholining 27 foizini ish bilan ta'minlovchi qishloq xo'jaligi samarali davlat siyosati sharoitida mamlakat iqtisodiy o'sishining asosiy omillaridan biri bo'lishi mumkin.

2018 yilda O'zbekistonning 70 foiz ekin maydonlari paxta va bug'doy yetishtirish uchun ishlatilgan. Oxirgi bir necha yillarda ba'zi yer maydonlari paxta va bug'doy yetishtirishdan chiqarildi. Lekin qishloq xo'jaligini rivojlantirishda unumdorlikni oshirish uchun hozirgi kunda mazkur ikki mahsulot ekish uchun ishlatilayotgan qo'shimcha maydonlardan keyinchalik boshqa yanada foydali ekinlarga, xususan, meva va sabzavotlar ekish uchun foydalanish lozim.



2022-yil hosili uchun asosiy maydonlarga qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish

Jami ekin ekiladigan maydon	shundan yoshlarga vaqtincha ajratiladigan maydon	Shundan qishloq xo‘jaligi ekinlarining joylashuvi:								
		Texnik ekinlar	Boshoqli don ekinlari	Dukkakli don ekinlari	Moyli ekinlar	Sabzavot	Poliz	Kartoshka	Ozuqa (yem-xashak) ekinlar	Boshqa ekinlar
3 148 305	233 647	1 046 190	1 038 104	74 367	125 330	166 384	71 507	50 740	339 742	20 133

Mazkur qarorda har bir hududning ixtisoslashuvi, tuproq-iqlim sharoiti, yerlarning meliorativ holati, unumdorligi, suv bilan ta‘minlanganligini hisobga olgan holda qayta ishlovchi, tayyorlovchi va eksport qiluvchi tashkilotlarning talablaridan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi ekinlari konturlar kesimida belgilangan muddatlarda to‘liq ekilishini, agrotexnik tadbirlar o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilishini tashkil etish.

Hamda sug‘oriladigan yer maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash, shuningdek, paxtachilik-g‘allachilik yo‘nalishidagi fermer xo‘jaliklari va agroklastar (kooperatsiya)larda ilmiy-innovatsion yondashuv mexanizmlari asosida almashlab ekish tizimini joriy etish ta‘kidlangan.

O'zbekiston paxta va bug'doy maydonlarini qisqartirish, masalan ularni 50 foizgacha kamaytirish qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 51 foizga, qishloq xo'jaligida bandlikning 16 foizga, suv tejamkorligining 11 foizga oshishiga olib keladi.

Ayni vaqtda ishlab chiqilayotgan 2019–2030 yillarda Qishloq xo'jaligini rivojlantirish milliy strategiyasi mazkur sohada Jahon banki Guruhi hamda boshqa xalqaro hamkorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishga tayyor bo'lgan islohotlarni amalga oshirish uchun asosiy hujjatga aylanishi lozim. Uning qabul qilinishi va keyinchalik hukumat tomonidan amalga oshirilishi yuqorida tilga olingan chaqiriqlarni mamlakatni rivojlantirish va O'zbekiston xalqi farovonligini oshirish uchun iqtisodiy imkoniyatlarga aylantirishga zamin yaratadi.



Qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish

Oziq-ovqat xavfsizligi va ichki bozorlarda narxlar barqarorligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda aholining tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning daromadlarini oshirish, shuningdek “Bir hudud – bir mahsulot” tamoyili asosida mahsulot yetishtirishni kengaytirish maqsadida fuqarolarga zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda yetishtirilayotgan 80 turdan ortiq qishloq xo‘jaligi mahsulotlari dunyoning 60 dan ortiq mamlakatiga eksport qilinmoqda. Bunda meva-sabzavotlar va dukkakli mahsulotlarning eksport hajmi oxirgi yetti yilda qariyb 2 barobarga oshgan. Albatta, bu kabi natijalarga erishishda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan fermer xo‘jaliklari, agroklastlar va meva-zabzavotchilik klasterlarining o‘rni beqiyos.



Birgina misol, 2022 yilning o'zida fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarining yerlariga jami 1,5 mln. gektar shundan, asosiy maydonga 523 ming gektar, bog' va tok orasiga 130 ming gektar hamda g'alladan bo'shagan takroriy maydonga 830 ming gektar oziq-ovqat ekinlari ekilgan. Sabzavot mahsulotlari hosildorligini oshirish maqsadida 23 ming gektar intensiv usulda sabzavotlar plantatsiya shaklida ekilgan. Hududlarda o'rganishlarda guvohi bo'ldikki, bu boradagi ishlar hajmini joriy yilda yanada oshirish bo'yicha zarur choralar ko'rilmoqda.



Qayd etish joizki, bundan 5-6 yil ilgari daromad topib, oilasiga nafi tegishi, xalqimiz dasturxonini to'kin bo'lishi uchun fuqarolarimizga yer berilishi haqida o'ylab ham ko'rmaganmiz. 2021 yil amaliyotga kiritilgan paxta va g'alladan qisqartirilayotgan yer maydonlarida eksportbop qishloq xo'jaligi ekinlari ekishni ko'paytirish, shuningdek, aholining keng qatlamlarini jalb qilish orqali ushbu yerlardan samarali foydalanish tizimi yaratildi.



Xususan, suv ta'minoti yaxshi bo'lgan paxta va g'alladan qisqartirilgan 200 min gektar yer maydonlarini dehqon xo'jaligi tashkil etish orqali sabzavotchilik, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka yetishtirish kabi loyihalarni amalga oshirish uchun fuqarolarga 30 yilga ijaraga berilmoqda.

Bunda, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida 0,15 gektardan 1 gektargacha, boshqa viloyatlarda 0,30 gektardan 1 gektargacha hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida 0,30 gektardan 2 gektargacha bo'lgan o'lchamlarda suv ta'minoti yaxshi bo'lgan yer uchastkalari ajratilyapti.

Hisob-kitoblarga ko'ra, 1 gektar maydonda yetishtirilgan paxta xom ashyosiga nisbatan uzumdan 7 baravar, gilosdan 6 baravar, yong'oqdan 5 baravar ko'p daromad olish mumkin.





Xususan, 2021 yilning o‘zida 100 ming gektar ekin yerini aholiga dehqonchilik qilish uchun bo‘lib berilgan bo‘lib, natijada 1,5 million tonna qo‘shimcha oziq-ovqat yetishtirilib, qishloqlarda 400 mingta yangi dehqon xo‘jaligi tashkil qilingan. Eng asosiysi, 1 million 200 mingdan ziyod fuqarolarimiz bandligi ta‘minlanib, daromadlarining ko‘payishiga erishilgan. Muhimi, bu boradagi islohotlar davom ettirilib, joriy yilda yilda ham suv ta‘minoti yaxshi 100 ming gektar qo‘shimcha ekin maydonlari aholiga ajratilishi bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bu esa yangi 1 milliondan ortiq ish o‘rinlari yaratilishi, aholi bandligi ta‘minlanishiga xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun

RAXMAT